TA’LIM TIZIMIDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN KADRLAR SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARI

Abdullayeva Xurshida No‘mon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan nogironligi bo‘lgan pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini yuksaltirishda ma’naviy-axloqiy jihatlar talqin qilinadi.Jamiyat hayotida bugungi kunda inklyuziv ta’limni rivojlantirishda nogironligi bo‘lgan shaxslarni kasbiy faoliyatga jalb etish,ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.Mazkur tadqiqot ishida nogironligi bo‘lgan pedagog kadrlarni qo‘llab-quvvatlash, insonning ijtimoiy tengligi, inson qadr-qimmati,ijtimoiy munosabatlar hamda axloqiy qadriyatlarning kasbiy faoliyatdagi o‘rni haqidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, ijtimoiy adolat, kasbiy salohiyat, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ma’naviy – axloqiy tarbiya, pedagog kadrlar.

KIRISH. Bugungi globallashgan sharoitda mamlakatimizda ta’lim tizimida kadrlar salohiyatini yuksaltirishda insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan pedagoglarning kasbiy faoliyatini oshirish, salohiyatini rivojlantirish nafaqat falsafiy, balki axloqiy mazmunga ham ega hisoblanadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni yoshlikdan kasb-hunarga qiziqtirish,ularni hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish maqsadida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlari hamda imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari o‘quvchilari orasida targ‘ibot va tashviqot tadbirlari o‘tkazib kelinmoqda. [1,26.] “Insonning ruhi va irodasi har qanday jismoniy to‘siqdan kuchliroqdir. Jamiyatning ma’naviy darajasi uning eng zaif a’zolariga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi” [2,122] Shunga asosan, ta’lim tizimida ham nogironligi bo‘lgan kadrlar salohiyatini yuksaltirish bu shunchaki ijtimoiy yordam emas, balki jamiyatning ma’naviy boyligini oshirishga qaratilgan xatti- harakatlar tizimidir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda inklyuziv ta’limga yuksak darajada e’tibor qaratib kelinmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi-ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan nogironligi bo‘lgan kadrlarning kasbiy yuksalishi uchun ma’naviy-axloqiy jihatlarni ilmiy asoslashdan iborat.

ASOSIY QISM. Nogironligi bo‘lgan kadrlar salohiyatini yuksaltirish tushunchasi-bu shaxsning bilim, malaka, tajriba va kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar jamlanmasi hisoblanadi. Ta’lim tizimida nogironligi bo‘lgan pedagoglar uchun bu maxsus shart-sharoitlarni talab qiladi. O‘z kasbiy imkoniyatlarini amalga oshirish nogironligi bo‘lgan kadrlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta’lim tizimida bir qancha muammolar mavjud. Avvalo “tenglik” tushunchasini axloqiy poydevor qilib olish zarur. Axloqiy me’yorlarga tayangan holda nogironligi bo‘lgan kadrlarga nisbatan kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik har bir xodimning muhim ma’naviy burchi hisoblanadi. Asosiy e’tiborni pedagogning jismoniy holatiga emas balki uning kasbiy mahoratiga qaratish lozim. Maxsus pedagogik texnologiyalarning yetishmasligi,malaka oshirishda cheklovlar,ish joylarining moslashtirilmaganligini ko‘rish mumkin. Bu kabi omillarning mavjudligi kasbiy salohiyatni namoyon etishda to‘sqinlik qiladi. Nogironligi bo‘lgan kadrlar salohiyatini yuksaltirish uchun bir qancha mexanizmlar ishlab chiqish zarurati tug‘iladi.Bunga misol qilib, inklyuziv muhit yaratish, malaka oshirishda ta’limni zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy tashkil etish, ruhiy qo‘llab - quvvatlash va albatta ilg‘or xorijiy tajribalardan o‘rganish talab etiladi. Ta’lim muassasalarini maxsus texnik jihozlar bilan ta’minlash muhim hisoblanadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan insonlar ongida “yordamga muhtoj” degan fikrni “jamiyatga foyda keltiruvchi kadr” fikriga o‘zgartirish zarur. Bu esa ta’lim muassasalarida olib borilishi kerak bo‘lgan axloqiy vazifalarga kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maqolada sintez,analiz qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki,ta’lim sohasida nogironligi bo‘lgan pedagoglarning kasbiy salohiyatini yuksaltirish nafaqat moddiy,balki ma’naviy qo‘llab-quvvatlash ham muhim sanaladi. Ta’limni innovatsion tarzda tashkil etish zarur hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy jihatdan nogironligi mavjud kadrlarga keng imtiyozlar berish, ularga o‘zlarining kerakli hisoblashlari uchun munosib yuklama va ish bilan ta’minlash muhimdir. Ish joyini xodimning imkoniyatidan kelib chiqib jihozlash , zarur shart – sharoit yaratib berish kerak bo‘ladi.

XULOSA. Nogironligi bo‘lgan kadrlar salohiyatini yuksaltirish-bu ta’lim tizimini insonparvarlashtirish, ma’naviy - axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashdir. Ma’naviy-axloqiy jihatlar esa jamiyatning umumiy madaniyatini belgilaydi. Ushbu pedagog kadrlar uchun nafaqat jismoniy,balki axloqiy munosib muhit yaratib berish, ularning yashirin kasbiy mahoratlari namoyon bo‘lishiga,ta’lim tizimida sifat darajasining yuksalishiga, kuchli jamiyat barpo etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Shavkat Mirziyoyev. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” Farmoni

2.Doris Kyorns Gudvin.No ordinary time: Franklin and Eleonor Roosevelt.-New York:Simon and Schuster,1994

3.O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni.2020-yil 15-oktyabr,O‘RQ-641-son.

4.BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi” Konvensiyasi-O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan, O‘RQ-695,07.06.2021.